

# MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

*Sobirova Nozima*

*ADU Pedagogika instituti*

*Maktabgacha ta'lism fakulteti magistranti*

**Tayanch so'zlar:** ta'lism, salohiyat, bilim, ko'nikma, ehtiyoj, talab, pedagogik texnologiya, vosita, ta'lism texnologiyalari, pedagogik nazariya

**Annotation.** Development of scientific and methodological training of leaders in the management of continuing education, especially preschool education, in the process of socio-economic, spiritual and educational changes in the Republic of Uzbekistan, developing market economy relations, development in science, technology and information globalization the issue is a pressing issue. Taking into account the social order of the preschool education system, the existing shortcomings in the scientific and methodological training of managers can be overcome by retraining and improving their skills, as well as the organization of independent work on them. The need to equip them with modern pedagogical theories, educational technologies is one of the great tasks facing the industry.

Ta'lism har qanday jamiyatda mamlakat ijtimoiy-istisodiy rivojlanishining asosiy manbaidir. Chunki, jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan yosh avlodning intellektual salohiyatiga boqliq. Ayniqsa, so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda yoshlar ta'lism-tarbiyasi, ularning ilm-hunar egallashlariga bo'lgan e'tibor davlat rahbari tomonidan xalqimizning buyuk tarixiy an'analari ham yangi shakl va usullar vositasida davom ettirib kelinmoqda. Ta'lism muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar, raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj va talabning o'sib borishi, ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, iqtisodiyotdagi ijobjiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va hususiy biznesning rivojlanishi, shuningdek, uzlusiz ta'limga fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, o'quvchilarining iqtidori va qobiliyatları hamda imkoniyatlari muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi, ta'lism berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, ta'lism-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, innovatsion jarayonlarni tashkil etish, ta'lism mazmunini yangilash hozigi zamon talabi ekanligi barchamizga ma'lum.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, ilm-fan, texnika, texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot va axborotlar globallashuvi jarayonida uzlusiz ta'lism tizimini, xususan, maktabgacha ta'lism tizimini boshqarishda izchil faoliyat ko'rsatayotgan rahbarlarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlanirish masalasi dolzarb muammolardir. Maktabgacha ta'lism ta'lism tizimi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmani hisobga olgan holda rahbar kadrlarning ilmiy-metodik tayyorgarligidagi mavjud kamchiliklarni ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda o'z ustlarida mustaqil ishslashlarini tashkil etish orqali bartaraf qilish mumkin. Ularni zamonaviy pedagogik nazariyalar, ta'lism texnologiyalari bilan qurollantirish zaruriyati mavjudligi soha vakillari oldida turgan vazifalardan biridir.

Kuzatishlarimiz bugungi kunda maktabgacha ta'lism ta'lism muassasalarini ilmiy-metodik asosda boshqarishda:

- uzlusiz ta'lism bosqichlari orasida uzviylikning to'la ta'minlanmaganligi;
- rahbar kadrlarning kasbiy, ilmiy-metodik tayyorgarligi ta'lism mazmuni va uning metodik ta'minotidan orqada qolishi;
- aksariyat MTT direktorlari ijodiy va ijtimoiy faollik, g'oyaviy-siyosiy yetuklik talab darajasida emasligi;
- MTT direktorlari tayyorlash tizimining ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi,
- bu jarayonda zamonaviy pedagogik, axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga e'tibor berilmaslik kabi nuqsonlar mavjud ekanligi tasdiqdanmoqda.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'lism maqsadlarini aniqlash ma'lum ichki va tashki shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Bunda tashkilotdagi pedagogik muhit hamda tizimni asoslovchi davlat hujjatlarining alohida ahamiyatini nazarda tutish lozim. Shu bilan bir qatorda real ta'lism jarayonini aniqlovchi dasturlar ham muhim o'rin tutadi. Bular tashqi talablar bulib, u tashkilotning aniq va mavjud imkoniyatlari bilan mos kelishi ta'lism muassasasi vazifalarini belgilash uchun me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lism tashkilotlari direktorlarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi bu ularning ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarligi, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy yetukligidan iborat.

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bir-birini to'ldiradi, o'zaro uzviy ravishda shakllanib, rivojlanadi, rahbarning mazkur tarkibiy qismlar bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik faoliyatda qo'llaniladi. Shu sababli MTT direktorlirining ilmiy-metodik tayyorgarligi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari ichida asosiy o'rinni egallaydi. Amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan ta'lism sohasidagi davlat siyosatining tamoyillaridan kelib chiqqan holda ta'lism muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish hamda rahbarlik faoliyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozigi tez o'zgarayotgan bir davrda MTT boshqaruv kadrlari har tomonlama intelektual salohiyatli, o'z faoliyatiga jiddiy qaraydigan, har bir bajarayotgan vazifasiga ijodiy yondashadigan rahbar sifatida faoliyat olib borishini davrning o'zi taqozo etmoqda. Chunki, rahbarning teran tafakkuri va keng dunyoqarashi, zamon talabiga javob beradigan, pedagogika, psixologiya, boshqaruv ilmidan xabardorligi, ijodiy fazilat va xislatlarga, iymon-e'tiqodga, muomala madaniyatiga ega, ijtimoiy faol, tashkilotchi va tadbirkorligi u boshqarayotgan ta'lism tashkilotining kelgusidagi samarali faoliyatini belgilaydi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoev SH.M. Maktabgacha ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror. 9.09.2017 y., PQ-3261, "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 y., 11 sentyabr. 181 (6875)-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: "O'zbekiston", 1992.-43-b
3. Azizzo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. - 174 b.
4. Angelovskiy K. Uchitelya i innovatsiya. Kniga dlya uchitelya. - M.: Prosvesheniye, 1991. - 159 s.
5. Abduquddusov O. A. Integrativ yondashuv - chuqur bilim, yaxshi fazilatlarni shakllantirish omili //Xalq ta'limi. - T., 2000. - № 3. -B. 121-123.. - № 2. - B. 8-12.